

XALQARO TILNI O'RGANISH – ZAMON TALABI

Rahmonqulova Kamola Muzaffar qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya:

Hozirgi dunyoning qiyofasida yangidan yangi kompyuter texnologiyalarining yaratilishi, jahonda axborot makonining globallashuvi, ushbu axborot tizimida ingliz tilidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy media matnlarining asosiy o'rnini egallashi ma'lum. Bunda ingliz tilining o'rni alohida ekanligi haqida fikr yuritilgan. Mazkur maqolada ingliz tilining bugungi hayotimizdagi o'rni, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, bu tilning jahon xalqaro munosabatlariga ta'siri kabi masalar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, turizm, xalqaro biznes, ommaviy axborot vositalari, muloqot, til, lingua franca.

Abstract:

It is known that the creation of new computer technologies, globalization of information space in the world, political, economic and socio-cultural media texts in English occupy the main place in this information system. It is thought that the role of the English language is special. This article examines the role of the English language in our lives today, the need to learn it, and the impact of this language on world international relations.

Key words: foreign language, tourism, international business, media, communication, language, lingua franca.

Hozirda jahon tobora globallashib borayotmoqda. Bu davrda har bir inson jamiyatda o'z o'rnini mustahkam egallashi uchun xorijiy tillarni o'rganish asosiy omillardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Avvalari xorijiy tillarni o'rganish shunchaki qiziqish sifatida talqin qilinib kelingan bo'lsa, hozirgi kunga kelib rivojlanayotgan har bir mamlakatda xorijiy tillarni o'rganish davr talabidir. Tadqiqotlarga qaraganda yer yuzida 7000 mingga yaqinlar tillar mavjud bo'lib, eng ko'p ishlatalidigan (ingliz tilida so'zlashuvchilar soni 1,5 milliadr) hamda xalqaro til sifatida tan olingan til bu – ingliz tilidir.

Ingliz tili – rasmiy xalqaro til. Rasmiy til – insonlar nafaqat muloqot uchun foydalanadigan til, balki bir mamlakat hukumati tomonidan joriy etilgan hamda davlat ishlari olib boriluvchi muloqot vositasidir. Dunyodagi ko'plab tashkilotlarning rasmiy tili ham ingliz tili sanaladi. Jumladan, 51 ta mamlakatda ingliz tili rasmiy til hisoblanadi. Bundan tashqari Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tili sifatida inglizcha belgilangan bo'lsa, dunyodagi Xalqaro savdo aloqalari, bank tizimlari, xalqaro konfirensiyalar, Olimpiadalar va boshqa turdagи musobaqalar ushbu tilda olib boriladi.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir davlatning rivojlanishini iqtisodiyotsiz tasavvur qila olmaganimizdek, idqitisodiyotni ham umumiylar muloqot tilisiz tasavvur qilishimiz mushkul. Ingliz tili davlatlararo munosabatlarni, biznesni, ilm-fanni, sport hamda madaniyatni rivojlanishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, umumiylar muloqot tili iqtisodiy sohaning samarodorligini oshirishda asosiy omildir. Zero, bir guruh xodimlari bir tilda muloqot qilar ekan, iqtisodiy farovonlik oshadi. Xalqaro biznes hayotida ingliz tilining o‘rni juda baland. Biznesning rasmiy tili ham ingliz tili hisoblanib, xalqaro kompaniyalar ishchi xodimlaridan ingliz tilida erkin muloqot qila olishni talab qilishadi. Dunyodagi barcha davlatlariga o‘z mahsulotlari bilan kirib bora olgan, barchamizga ma’lum va mashhur bo‘lgan Pekindagi “Airbus”, “Fast Retealing”, “Samsung”, “Nokia”, “Renault”, “Microsoft” kabi xalqaro kompaniyalarning koorparativ tili ham ingliz tilidir.

Ingliz tilini o‘rganish hayotimizni bir muncha osonlashitiradi va bir qancha qulay shart-sharoitlarni yuzga keltirib chiqaradi, ingliz tili – xalqaro ta’lim tilidir desak adashmagan bo‘lamiz, chunki bilamizki dunyoga mashhur Cambridge (Kembrij), Oxford (Oksford), Harvard (Harvard) kabi nufuzli universitetlar ingliz tilidan foydalanadi va yana shuni aytishimiz mumkinki, yer yuzidagi ilmiy maqolalar, jurnallar, kitoblar, barcha ma’lumotlarning 80% i ingliz tilida saqlanadi. Dunyo bo‘ylab internet tarmoqlarida olib boriladigan muzokalaralarning 75% i ingliz tilida olib boriladi. Online (onlayn) veb-sahifalarning 50% dan ortiq qismi ingliz tilida yuritiladi, ya’ni ingliz tilida ma’lumotlarning soni ko‘proq va bizga ko‘plab yangi ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratib beradi. Bundan tashqari o‘z sohasining mutaxassisini bo‘lgan chet ellik olimlar, pedagoglar, yozuvchilar, shifokorlar va boshqalar bilan erkin onlayn bas-munozaralar, muzokalarlar olib borishinggizga yo‘l ochib bera oladi. Bu til dunyodagi barcha mamlakatlarni bog‘lab turuvchi asosiy muloqot tili sanaladi. Qaysi faoliyat vakili bo‘lmisin o‘z sohasining mutaxassisini bo‘lishga intilayotgan har bir shaxs xorijiy tillarni o‘rganishi asosiy funksiyalardan biri sanaladi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib an’anaviy ommaviy axborot vositalariga talabning ortishi va rivojlanishi: yangidan yangi kompyuter texnologiyalarining yaratilishi, jahonda axborot makonining globallashuvi, ushbu axborot tizimida ingliz tilidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy media matnlarining asosiy o‘rnini egallashi ma’lum. Umuman olganda, butun dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yangiliklari ushbu tilda ommaga taqdim etiladi.

Kommunikativ ko‘nikmalar sayyoohlар va turizim sohasi vakillari uchun muhim hisoblanadi. Ushbu zamonaviy davrda ingliz tili – “Lingua franca” (lingua franca bu butun dunyo muloqot uchun foydalanadigan umumiylar muloqot tildir) sifatida ishlatilganligi sababli aksariyat Turizim agentliklari sanoati rivojlanishiga katta yordam beruvchi omil sifatida ingliz tili qaraladi va turizim sanoatida mukammal xizmat ko‘rsatish uchun qo‘yiladigan talablar doirasida ingliz tili mijozlar bilan muloqot qilish uchun majburiy talab sifatida namoyon bo‘ladi.

Yurtimiz tobora rivojlanib borar ekan, jahon bozoriga kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro alaoqalarni o‘rnatayotgani, qo‘shma korxonalarining ko‘payib borishi xorijiy tillarni bilishga bo‘lgan ehtiyojning keskin ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Xorijiy tillarni o‘rgatish ta’lim tizimimizning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu sohaga malakali pedagoglarni jalg qilish, aholining xorijiy tillarni o‘rganishiga qiziqishlarini orttirish maqsadida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonida 2021-yilning 19-mayida qabul qiling “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga ko‘ra Xorijiy tillarni o‘qitish borasida qator vazifalar topshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. <https://www.english.com>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 19.05.2021-yildagi PQ-5117-sonli qarori.